

2–SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

**MUSIQALI TEATR AKTYORLIGI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI
TARBIYALASHDA VOKAL SAN'ATINING O'RNI**

Abdug'aniyeva Farangizbonu

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institute

Farg'ona mintaqaviy filiali "Musiqali teatr aktyorligi"

3-bosqich talabasi

ilmiy rahbar: Umidaxon Boltaboyeva

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Musiqali teatr aktyorligi san'ati ta'lif yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan keng foydalanish usullari haqida hikoya qilinadi.*

Kalit so'zlar: *San'at, opera, balet, musiqa, vokal, xonanda, kuylovchi aktyorlar.*

Ma'lumki, har qanday san'at o'z – o'zidan rivojlanmaydi. Unga xalq hayoti, voqelikdagi jo'shqin o'zgarishlar, jamiyat rivojidagi voqealar ta'sir berib, uni yo'lga solib, rivojlantirib turadi. Chunki san'atning ham ifoda ob'ekti xalq hayoti, uning ishlari, o'sish – o'zgarishdagi muvaffaqiyatlaridir. San'at xalq hayoti bilan qanchalik chambarchas aloqada bo'lsa, u shunchalik rivoj topadi, yashovchan bo'ladi va xalq muhabbatini qozonadi.

O'zbek san'atining hozirgi ahvoliga nazar tashlaydigan bo'lsak, vokal janri ham jadal taraqqiy etayotganining shohidi bo'lamiz. Ushbu maqolada biz musiqali teatr aktyorlari bilan vokal ijrochiligi ustida ishslash, vokal faninining ular uchu qay darajada muhimligi haqida suhbatlashamiz.

Musiqali teatr – sahna xatti-harakati va musiqali uyg'unlik asosiga qurilgan qo'shiq va raqs elementlari ishtirok etgan (opera, balet, operetta va myuzikl) teatrdir. "Musiqali teatr aktyorligi san'ati" ta'lif yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun vokal fani juda muhim bo'lib, ish jarayonlarida tizimlilikni taqozo etadi. Shuningdek, musiqali drama janri noyob san'at janri bo'lib, unda bir qancha san'at turlari o'zaro uzviy bog'lanadi va yangi badiiy asarni yuzaga keltiradi. "Musiqali teatr aktyorligi san'ati" ta'lif yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan keng foydalanishi lozim. Ashula aytishning o'ziga xos tomonlari bilan bog'liq o'z qiyinchiliklari ham yo'q emas. Xonandaning ovozi o'ziga xos "musiqa asbobi" hisoblanadi. Biroq, kuylashdan oldin tinglay bilish ham kerak. Tinglaganga ham ayrim musiqa tovushlarini yoki ohangni tashkil etuvchi tovushlarning ketma-ketligini aniq yetkazib bera oladigan darajada eshita bilash kerak. O'z-o'zidan ma'lumki, ashula aytish uchun talabaga avvalo tabiiy, musiqiy xotira va aniq ifodalay bilish qobiliyati zarur bo'ladi. O'quv yilining boshida bolalardagi ana shu fazilatlardan kelib chiqib, alohida reja tuziladi. Yakka qo'shiq o'rgatishda faqat yaxshi va a'lo darajada musiqiy qobiliyat hamda sog'lom ovozga ega bo'lgan talabalarga tanlab

olinadi. Biroq, tajriba shuni ko'rsatadiki, o'rtacha musiqiy qobiliyatga ega bo'lganlar ham uslubiy jihatdan to'g'ri va muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar davomida musiqiy qobiliyatga ega bo'lganlar ham uslubiy musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi. Eshitish, xotira xususiyatlari rivojlanadi va aniq ifoda etish o'zlashtiriladi. Talabaning ovozini to'g'ri tarbiyalash, uning musiqa sezgirligini har tomonlama rivojlantirish vokal o'qituvchisining birinchi navbatdagi vazifasidir. Vokal jarayonida bu vazifaning to'g'ri bajarilishi har bir talabadagi musiqa sezgisining o'sishini ta'minlashga yaxshi yordam beradi. Undan qobiliyatni to'la - to'kis namoyon bo'lishiga keng yo'l ochadi.

Vokal darslariga qatnashayotgan talabalarga to'g'ri kelgan qo'shiqni o'rgataverish yaramaydi. Ayniqsa kuylovchi aktyorlarga. Ya'ni musiqali teatr aktyorlariga musiqali dramalardan ariyalar tanlab olinadi. Bunda, yuqorida qisman to'xtalib o'tganimizdek, talabalarning ovoz imkoniyatlari va musiqa qobiliyatlarini hisobga olgan holda ish olib borish talab etiladi. Vokal o'qituvchisi yosh kuylovchi aktyorlarga o'rgatiladigan qo'shiqlarni tanlaganda birinchi navbatda uning tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy-badiiy qimmati va estetik xususiyatini ko'zda tutmog'i lozim. Bu tadbir talabalarning estetik didi va qobiliyati hamda ovozi me'yoriy o'sishiga olib keladi. Vokal ijrochiligi kuylovchidan sabr bardoshni, iroda va mahoratni talab qiladi. Agar o'qituvchi talabani shu sohaga bo'lgan qiziqishlarini, imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltira bilsa kuylovchi-talaba mahorati yanada ortadi.

Oliy o'quv yurtlari yoshlarga izchil bilim berish bilan birga ularning qobiliyatlarini ham o'stirmoqda, talabalarni barkamol rivojlantirish yuksak axloqiy me'yordarda tarbiyalashdek ulug'vor vazifani ado etmoqda. Bilim dargohida vokal asoslarini o'tishdan maqsad talabalarning estetik qobiliyatlarini o'stirish, ularning iste'dodlarini shakllantirishdan iborat.

O'quv dasturlariga muvofiq talabalarni o'zbek kompozitorlarining vokal, shuningdek, o'zbek, rus, qardosh va chet el xalqlarining ijodi bilan tanishtirish ko'zda tutiladi. Birinchi va ikkinchi bosqich talabalarida vokal malakalari hosil bo'la boshlaydi, yuqori bosqich (kurs) larda bu malakalar shakllanadi va o'sadi. Vokal darslari jarayonida talabalarga turli xil vokalizlar va kompozitorlarning yoshlarga atab yozgan asarlari o'rgatib boriladi.

Talabalarning vokal san'ati sirlarini egallab, o'zlaridagi talant kurtaklarini o'stirishlari va kelgusida yangi vokalist bo'lib yetishib, madaniyatimiz rivojigi munosib hissa qo'shishlari ko'p jihatdan rahbarning xizmati va tashabbuslariga bog'liqdir.

Talabalring vokal mashg'ulotlarda qatnashishlari ularning tushuncha doiralarini yanada kengaytiradi, iste'dod kurtaklarining gul ochishi jarayonini tezlashtiradi, ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham o'quv dargohlaridagi o'tilayotgan vokal ijrochiligi fanining zimmasida turgan vazifalar nihoyatda muhim ma'suliyatdir. Bu vazifani ado etishda barcha imkoniyatlar va vositalarni ishga solish, rezervlaridan unumli foydalanish ta'siridan usullar izlab topish va samaradorlikka

erishish talab etiladi. Vokal mashg‘ulotlarida talaba o‘rganib olgan har bir qo‘sinq uning ma’naviy olamini boyitib, Vatanga bo‘lgan mehrini oshiradi. Qo‘sinqning matni ijrochiga tushunarli va zavqli bo‘lgan taqdirdagina talaba uni tezda yodlab, musiqasini ham o‘zlashtirib oladi, nozik tomonlarini engil ilg‘aydi, sehrini sezadi. Shundan so‘ng uni sevib ijro qilishga kirishadi va boshqalarini ham zavqlantira oladi.

Professional musiqa va vokal san’atining yaratilishida, o‘z navbatida, rus xalq musiqasi asosiy o‘rin tutgan. Xalq ijrochilik san’ati, cherkov qo‘sinqchiligi – bularning hammasi o‘zining yuksak vokal madaniyati bilan dunyoviy professional vokal san’ati paydo bo‘lishiga zamin yaratib bergen.

Rossiyada teatrni tashkil qilishga urinishlar XVII asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Keyinroq buyuk Petr davrida Kunst boshchiligidagi yetti akterdan iborat truppa taklif qilingan, u musiqiy tomoshalar namoyish qilgan. 1735-yilda Rossiyaga doimiy ishslash uchun italyan opera truppasi taklif qilingan, u rus zaminida mustahkam ildiz otgan.

Rus opera xonandasasi o‘ziga xos hodisa sifatida shakllangan. Rus xonandalarining kuylashini faqat italyan vokal madaniyatining ta’siri natijasi sifatida baholashga uringan ayrim tarixchilarining fikrlari mutlaqo asossiz, deb hisoblaymiz. Shubhasiz, italyan xonandalik maktabining rus xonandalariga ta’siri bo‘lgan va anchagacha sezilib turgan. Aslida rus xonandalarining ijro uslubi o‘ziga xosligi, rus kishisiga xos hislar chuqurligi, nihoyat rus tilining fonetik xususiyatlari milliy rus vokal maktabiga o‘zining yo‘lidan borish imkonini bergen.

Birinchi rus qo‘sinqchilik o‘qituvchilaridan biri Kostroma guberniyasi krepostnoyi, Italiyada tahsil olgan I.A.Rupin bo‘lgan. Saroy qo‘sinqchilik kapellasida kompozitor D.Bortnyanskiy o‘qituvchilik qilgan.

Asrlar mobaynida odamning ovoz apparati va uning imkoniyatlarini o‘rganish, ijro maktablari, metodlari, tamoyillarini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Biroq barcha ishlar tavsifiy xarakterga ega edi, ularning mualliflari vokal texnikasi rivoj, ijro tamoyillariga batafsil to‘xtalganlar. 1855-yilda ispan pedagogi M.Garsiya tomonidan laringoskop (dastakli oyna) ixtiro qilinganidan va kuylashda nafas harakatlari o‘rganilgandan (XIX asrning 40-yillarda Diden va Petreken) keyin metodik ko‘rsatma va o‘qitish metodlari ilmiy asosga ega bo‘la boshladi. Professional vokal san’ati antik dunyoda ham ma’lum bo‘lgan. Yevropa vokal san’ati, asosan, xalq va kult qo‘sinqlari shaklida rivojlangan.

Musiqali teatr aktyorligi yo‘nalishi talabalarini tarbiyalash jarayonida mashg‘ulotlar davomida talaba ovozining jarangdorligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, vokal ijrochilaridan kuchli ovozgina emas, vokalda uning jilolari uyg‘unligi ham talab etiladi. Ovozning kuchliligi va intonatsiyasi bilangina ish bitmaydi. Ovozdagi barcha elementlar ijro jarayonida uyg‘unlashgan taqdirdagina vokal san’atida kuzatilgan maqsadga erishiladi. Bunga erishish, birinchi navbatda, vokal ijrochiligi fani o‘qituvchisining maxoratiga bog‘liq bo‘ladi

Talabalar ovozidagi o‘ziga xoslik ko‘p hollarda ayon sezilib turmaydi. Shuning uchun ham ovoz me’yoriy ravishda rivojlanib borgan taqdirda ya’ni talaba zo‘riqib qo‘sinqaytmaqanda va ovozda burun yoki tomoqdan qo‘shilgan qo‘sishimcha tovushlar bo‘lmaganda individual tembrlar qo‘sinqaytmaqanda jarangdorligiga xalal bermay, aksincha uni boyitadi. Mashg‘ulotlar davomida talaba ovozining jarangdorligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, vokal ijrochilaridan kuchli ovozgina emas, vokalda uning jilolari uyg‘unligi ham talab etiladi. Ovozning kuchliligi va intonatsiyasi bilangina ish bitmaydi. Ovozdagi barcha elementlar ijro jarayonida uyg‘unlashgan taqdirdagina vokal san’atida kuzatilgan maqsadga erishiladi. Bunga erishish, birinchi navbatda, vokal ijrochiligi fani o‘qituvchisining maxoratiga bog‘liq bo‘ladi. Talabalarni vokal darslariga tayyorlash ancha mas’uliyatli ish. Chunki dars talaba uchun yangi omildir. Vokal darslarida talaba o‘zi g‘oyibona tanish bo‘lgan musiqa va qo‘sinqaytmaqanda bilan tanishadi, bunda uning iste’dod kurtaklari riojlanib, qobiliyati va imkoniyatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Musiqa va qo‘sinqaytmaqanda ixlosmand, yaxshigina ovozi tufayli istiqboli bo‘lgan talabalarni vokal darslarga jalb etish, ular bilan samarali ish olib borish faqat kafedra va vokal rahbarining ishi bo‘lib qolmay, balki butun jamoatchilikning ham ishi bo‘lishi kerak. Chunki, kelajak – yoshlarniki, kelajak uchun qayg‘urish esa har bir pedagogning burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Pirmatov. *Yakkaxon qo‘sinqaytmaqanda*. Musiqa nashriyoti. Toshkent. 2011-y.
2. N.Qahhorov. *Vokal asoslari*. Toshkent 2008-y.
3. Sh.Pirmatov. *Yakkaxon xonandalik*. Toshkent. 2007-y.
4. J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. *O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish*. Toshkent, 2000 y.
5. O.Fayzullaev. *Maktabda musiqiy tarbiya*. Toshkent, 1991 y.
6. Mualliflar jamoasi. *Pedagogika*. Toshkent 1990 y.
7. N.A.Baxriddinova. *O‘zbekistonda bolalar xor madaniyati*. Toshkent, 2002 y.